

TUPROQ GRUNTIDA SIZOT SUVINING KO'TARILISHI.

Xikmatov Sherzod Tuxtamurodovich.

Toshkent davlat agrar universiteti assistenti (mustaqil tadqiqotchi)

Annotatsiya: Ushbu maqolada Jizzax viloyati Mirzacho'1 tumanining o'rtacha sho'rlangan, sizot suvlari yer yuzasiga yaqin joylashgan tuproqlari sharoitida sizot suvlarining joylashish chuqurligi hamda tuproq kesmasidagi namlik miqdorlarini o'rganish natijalari keltirilgan.

Kalit so'zlar: tuproq kesma devori, sizot suvlari, kollektor-drenaj.

Mavzuning dolzarbliji. Sho'rlangan erlarni sho'rsizlantirish, tuproq unumdarligini oshirish maqsadida tuproq qatlamlarida mavjud zararli tuzlarni miqdorini, suv zaxiralarini, er osti suvlarini joylanish chuqurligini inobatga olgan xolda har bir tuproq sharoiti uchun mos sho'r yuvishning ilmiy asoslangan samarali usullari va maqbul me'yorlarini ishlab chiqish, suv resurslari keskin taqchil bo'lib borayotgan bir vaqtda suvni juda tejab sarflash, barcha mavjud suv manbalarini tartibga solish va uning erga shimilib isrof bo'lishi xamda xavoga bug'lanib ketishini oldini olish hamda tuproq grunt tarkibida me'yordan ortiqcha sizot suvlarini tortib olish va tartibga solish, sho'rlangan erlarni meliorativ holatini yaxshilash uchun mo'ljallangan yopiq yotiqlik zovurlarni takomillashtirish dolzarb masalalar hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-2026 yillarga mo'ljallangan «Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi» to'g'risidagi 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son farmonining «Suv resurslarini boshqarish tizimini tubdan isloq qilish va suvni iqtisod qilish bo'yicha alohida davlat dasturini amalga oshirish» belgilangan. Bunda 31-maqsadining ikkinchi bo'limida irrigatsiya-melioratsiya ob'ektlarini qurish va rekonstruksiya qilish hisobiga 335,1 ming gektarning suv

ta'minoti va 125,4 ming getktarning meliorativ holatini yaxshilash va 543 mln kub metr suvni iqtisod qilish rejalashtirilgan bo'lib, bunga ko'ra 2022 yilda 427,1 km kanal, 131,9 km lotok, 13,2 km quvur va 886,0 km kollektor-drenaj tarmoqlari qurish va rekonstruksiya qilish topshirig'i berilgan.

Tadqiqot natijalari: Sug'oriladigan yerlarda sizot suvlarini ko'tarilishi balandligini o'rganish, tuproqning meliorativ holatini muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Ma'lumki, tuproqni qayta sho'rlanishiga asosan sizot suvlarining joylashgan chuqurligi va ularning minerallashganlik darajalari, tuproqning litologik tuzilishi katta ta'sir ko'rsatadi. Sizot suvlarini minerallashgan va er yuzasiga yaqin joylashgan erlarda tupmroqning qayta sho'rlanish jarayoni ko'payadi, natijada bir mavsum davomida tuproq o'rtacha yoki kuchli darajagacha sho'rlanadi. Sho'rlangan erlarda sizot suvlarini mavsumiy ko'tarilish balandligini tuproqning litologik tuzilishiga bog'liq holda o'rganish muhim masala hisoblanadi.

Tajriba maydonida sizot suvlarini ko'tarilish masofasi, sizot suvigacha kovlangan kesmasida tuproq devori tozalangan va tozalanmagan sharoitda tuproq namligini (Astapov usuli) amaliy aniqlash usuli bilan aniqlandi. Aniqlash natijalari 1-rasmda keltirilgan.

Olingan ma'lumotlarni ko'rsatishicha g'o'zaning o'suv davrini boshlanishida sizot suvlarining joylashish chuqurligi 190 sm bo'lgan tuproqni sizot suvlar ta'sirida zaxlanish balandligi 150 sm gacha, ya'ni er yuzasidan 150 sm chuqurlikgacha tuproq kesmadagi tozalanmagan va tozalangan devorlar namligida 1,5-2,0 % gacha farq bo'lgan, kesim devorining 150 sm dan 190 sm gacha (40 sm) bo'lgan qismidagi tuproq namligi bir-biriga juda yaqin bo'lib, bu sizot suvlarini zaxlanish balandligini ko'rsatadi. Bunda sizot suvlarini joylashgan o'rni tuproqning (190 sm) mexanik tarkibi og'ir, uning kaspilyar naychalari ingichka bo'lganligi uchun ko'proq balandlikka ko'tarilishiga sababchi bo'lgan. Umuman olganda, tajriba maydoni tuprog'inining sizot suvlar joylashish chuqurligi 190 sm bo'lganda, uning kapilyar

zaxlanishi 40 sm balandlikkacha bo‘lishligi aniqlandi.

1- jadval

Tuproq kesmasida aniqlangan namlik darajasi, %

Tuproq qatlami, sm	Tuproq kesma devori tozalanmaganda	Tuproq kesma devori tozalanganda
0 - 10	13,6	12,0
10 - 20	14,3	12,6
20-30	15,1	13,5
30-40	15,8	14,3
40-50	16,6	14,8
50-60	17,3	15,2
60-70	17,9	15,9
70-80	18,5	16,7
80-90	18,8	17,9
90-100	19,5	18,2
100-110	20,3	18,8
110-120	20,7	19,5
120-130	21,8	20,5
130-140	22,0	21,4
140-150	22,5	22,9
150-160	23,3	23,5
160-170	23,7	23,7
170-180	24,0	24,0
180-190	24,8	24,0

XULOSA.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, tajriba maydoni tuprog‘ining sizot suvlar joylashish chuqurligi 190 sm bo‘lganda, uning kapilyar zaxlanishi 40 sm balandlikkacha bo‘lishligi aniqlandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 — 2026 yillarga mo‘ljallangan «Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi» to‘g‘risidagi 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son farmonining «Suv resurslarini boshqarish tizimini tubdan isloh qilish va suvni iqtisod qilish bo‘yicha alohida davlat dasturini amalga oshirish» bo‘yicha 31-bandи.
2. Norqulov U. Izuchenie osobennostey formirovaniya vodno-solevogo rejima na takirnyx pochvax novogo orosheniya Sherabadskoy stepa. Avtoreferat dissertatsii na soiskanie uchenoy stepeni kondedata selskoxozyaystvennyx nauk. Toshkent-1982 g. str 21.
3. Norqulov U. Vliyaniya kruglogodovoe ispolzovaniya zasolenno‘x zemel na vodno-solevoy rejim pochv. «O‘zbekiston Respublikasi melioatsiya va suv xo‘jaligi rivojlanishining zamonaviy muammolari» mavzusidagi xalqaro ilmiy-texnik anjumanning materiallari 2008 y 27-29 noyabr 63-65 bet.
4. Norqulov U. Tuproqni sho‘rini yuvishda suvni tejash texnologiyalarining ilmiy va amaliy asoslari. Qishloq xo‘jaligi fanlari doktori (Dsc) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent-2018 yil, 13, 26, 27-betlar.